



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-sentabr  
oylari*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 67-236-70-00*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 406 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 345 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 4 208,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 107,7 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 269,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 85,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 939,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 398,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 111,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 208,7 *)</b>	<b>107,7</b>
<b>Guliston sh.</b>	1 485,0	108,3
<b>Shirin sh.</b>	55,3	105,7
<b>Yangiyer sh.</b>	370,5	107,6
<i>tumanlar:</i>		
<b>Boyovut</b>	230,7	106,5
<b>Guliston</b>	199,5	108,2
<b>Mirzaobod</b>	279,5	107,7
<b>Oqoltin</b>	183,8	106,4
<b>Sardoba</b>	135,0	107,1
<b>Sayxunobod</b>	147,3	108,6
<b>Sirdaryo</b>	668,6	106,1
<b>Xovos</b>	145,1	108,8

\*) Hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning, Guliston sh. (**108,3** %), Guliston (**108,2** %), Sayxunobod (**108,6** %) Xovos (**108,8** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-sentabr)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

## 2024- yil yanvar- sentabr oylari uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, hududlar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'sish sur'ati **107,7** % ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 35,3 % bilan 1 485,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,3 % bilan 55,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd so'm*









## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-sentabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 939,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 9,6 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 14,5 % ga kamaydi va 269,0 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,4 % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (100,0 %), Oqoltin (98,9 %) va Xovos (99,4 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (11,8 %) va Sardoba (2,1 %), Yangiyer sh. (5,5 %), Sirdaryo (2,4 %) tumanlarida kuzatildi.


6,4 %

93,6 %

 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

2024- yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 572,7 ming so'mni (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 105,6 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (14 790,9 ming so'm), Yangiyer shahri (7 655,0 ming so'm) va Sirdaryo (4 841,2 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-sentabr), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	<b>Jami, mlrd so'm</b>	<b>2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>130,7</b>	<b>90,5</b>
Guliston sh.	64,3	77,0
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	17,1	108,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	11,7	130,7
Guliston	7,5	115,9
Mirzaobod	-	-
Oqoltin	-	-
Sardoba	5,2	153,4
Sayxunobod	-	-
Sirdaryo	24,9	94,6
Xovos	-	-


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-sentabr)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024- yil yanvar-sentabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 398,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 130,7 mlrd so'mni (90,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 267,6 mlrd so'mni tashkil etdi (126,1 %).













2024 - yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 130,7 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (58,0 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>58,0 mlrd so'm</b></p>  <p>44,4 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>26,7 mlrd so'm</b></p>  <p>20,4 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>11,8 mlrd so'm</b></p>  <p>9,1 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>8,0 mlrd so'm</b></p>  <p>6,1 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>7,7 mlrd so'm</b></p>  <p>5,9 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>6,9 mlrd so'm</b></p>  <p>5,2 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>3,7 mlrd so'm</b></p>  <p>2,9 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>3,2 mlrd so'm</b></p>  <p>2,5 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>0,5 mlrd so'm</b></p>  <p>0,4 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>2,0 mlrd so'm</b></p>  <p>1,5 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>1,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,8 %</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>1,1 mlrd so'm</b></p> <p>0,8 %</p>

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 267,6 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 216,8 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 33,0 mlrd so'mni, otlar – 17,0 mlrd so'mni, parrandalar – 0,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>113,4 mlrd so'm</b></p>  <p>42,4 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>47,4 mlrd so'm</b></p>  <p>17,7 %</p>	<p><b>1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>56,0 mlrd so'm</b></p>  <p>20,9 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>25,9 mlrd so'm</b></p>  <p>9,7 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>17,0 mlrd so'm</b></p>  <p>6,4 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>7,1 mlrd so'm</b></p>  <p>2,7 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,2 mlrd so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,4 mlrd so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,04 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,06 mlrd so'm</b></p>  <p>0,02%</p>		



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 656 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so‘m	2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2 415,4*)</b>	<b>110,6</b>
Guliston sh.	64,6	121,0
Shirin sh.	2,0	107,6
Yangiyer sh.	14,7	106,9
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	4,9	108,4
Guliston	13,4	105,0
Mirzaobod	13,1	105,4
Oqoltin	10,3	110,8
Sardoba	2,0	106,2
Sayxunobod	4,9	105,3
Sirdaryo	11,9	107,9
Xovos	1,2	108,5

\*) Hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 415,4 mlrd so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	<b>Hajmi, mlrd so'm</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>426,8</b>	<b>100,0</b>
Guliston sh.	56,8	13,3
Shirin sh.	0,6	0,1
Yangiyer sh.	4,9	1,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	2,3	0,5
Guliston	16,3	3,9
Mirzaobod	1,0	0,3
Oqoltin	142,7	33,4
Sardoba	20,6	4,8
Sayxunobod	1,8	0,4
Sirdaryo	178,8	41,9
Xovos	1,0	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (56,8 mlrd so'm), Oqoltin (142,7 mlrd so'm) va Sirdaryo (178,8 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 426,8 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,5 % ga oshdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 416,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 69,8 %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi 10,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 8,0 %) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 098,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga o‘sd.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasi statistik hisoblarga qaraganda 3 957,4 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,6 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 126 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 103 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga eng yirik korxonalar Guliston sh. (119,8), Yangiyer sh. (126,7) hamda Guliston (120,6), Sirdaryo (119,4) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd so‘m	2023- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4 098,3*)</b>	<b>106,3</b>
Guliston sh.	969,0	119,8
Shirin sh.	37,0	110,5
Yangiyer sh.	222,9	126,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	186,4	70,3
Guliston	125,2	120,6
Mirzaobod	143,8	116,3
Oqoltin	124,7	93,0
Sardoba	112,0	114,7
Sayxunobod	179,3	49,8
Sirdaryo	1 162,6	119,4
Xovos	112,5	91,0

\*) Hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda